



Ulug'bek RAHMONOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: rahmanobulugbek@gmail.com

PhD S.Qodirov taqrizi asosida

IZOHLI LUG'ATLARDA SO'ZLIKNING CHEGARALARI MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqolada izohli lug'atlarni tuzishning nazariyasi va amaliyotidagi eng qiyin hamda munozarali masalalaridan birini – umumiy tipdagi (ixtisoslashmagan) izohli lug'at uchun, xususan, hozirgi adabiy tilning izohli lug'atlar uchun so'zlarni tanlab olishning asosida yotishi kerak bo'lgan prinsiplar haqidagi masala tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Leksika, me'yoriy-izohli lug'at, vokabula, tezaurus, leksikografiya.

ПРОБЛЕМА ГРАНИЦ ЛЕКСИКИ В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация

В статье анализируется один из самых сложных и дискуссионных вопросов теории и практики составления толковых словарей – вопрос о принципах, которые должны лежать в основе отбора слов для общего (неспециального) толкового словаря, в частности, для толковых словарей современного литературного языка.

Ключевые слова: Лексикон, нормативно-толковый словарь, лексика, тезаурус, лексикография.

THE PROBLEM OF VOCABULARY BOUNDARIES IN EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation

The article analyzes one of the most difficult and controversial issues in the theory and practice of compiling explanatory dictionaries - the issue of the principles that should underlie the selection of words for a general (non-specialized) explanatory dictionary, in particular, for explanatory dictionaries of the modern literary language.

Key words: Lexicon, normative-explanatory dictionary, vocabulary, thesaurus, lexicography.

Kirish. Ma'lumki, hozirgi zamon leksikografiyada so'zlikning tarkibi haqidagi masalani turli xil munozaralarga sabab bo'lyapti. Me'yoriy-izohli lug'atlarga, arzimagan istisnolardan tashqari, sohaviy, dag'al sodda so'zlashuv tiliga oid, eskirgan tor mutaxassislikka oid leksika, ya'ni, birinchi navbatda, nome'yoriy leksika kiritilmaslik holatlarini ko'rish mumkin. Me'yoriy-izohli lug'atga me'yoriy leksika kiritiladi. Biroq oxirgi qoida aniqlashtirishlarga muhtoj.

Me'yoriy-izohli lug'atning tarkibi nihoyat darajada rang-barang. Bu yerda biz ayrim so'zlardan tashqari, so'zlarning grammatik (nomuntazam) shakllarini, ko'p ma'noli so'zlarni, omonimlarni, sinonimlarni, antonimlarni, frazeologizmlarni, old qo'shimchalarni va h.k. uchratamiz. Shu munosabat bilan vokabulaning bu xilma-xil barcha guruhlariga tadbiiq qilinadigan umumiy qonuniyatlarni kuzatish qiziqarlidir. Mavzularning ketma-ketligi, ayniqsa oxirgi bo'limda, odatda leksikologiyada qabul qilinganiga qaragandagidan farqlidir. Vokabulalarning har xil tiplariga bag'ishlangan kichik bo'limlar ularning Jonson Lug'atida va hozirgi lug'atlarda aniq, ochiq ifodalangan sharhining kamayishi tartibida keladilar.

Har qanday izohli lug'atni tuzishda [3] so'zlikning muammosi birinchi va eng qiyin ekanligi haqida jahon tilshunos olimlarning mulohazalari ochiq-oydin aytib turibdi.

Shunday ekan, masalan, ozarbayjon tilining lug'atini tuzuvchilar "Lug'atni tuzishda eng qiyin va munozarali masala so'zlik haqidagi, uning chegaralari haqidagi, lug'atni qaysi vaqtdan boshlash kerakligi haqidagi masala hisoblanadi" [4] deb da'vo qiladilar. Ushbu masalaning murakkabligi va ishlab chiqilmaganligi haqidagi fikr "Leksikografik" to'plamning birinchi nashriga yozilgan redaksiya maqolada ifodalangan.

Xorijiy leksikograflar ham so'zlik haqidagi masalani leksikografiyaning asosiy va eng muhim masalalaridan biri deb hisoblaydilar [13].

Bundan tashqari, ulardan ba'zi leksikograflar uning hal qilinishiga nihoyatda pessimistik tarzda munosabatda bo'lalilar, "u har doim munozarali masala (will always a mooted question) bo'lib qolaveradi, deb o'ylaydilar" [11].

Leksikografiya tarixida milliy tillarning lug'atlarini tuzish nazariyasi va amaliyotida bo'lgani kabi har doim ikkita qarama-qarshi yo'nalishlar kurash olib borganlar.

Bir yo'nalishning vakillari ushbu tilning leksik materialini ham diaxron planda (lug'atga iloji boricha tilning ancha ilgari yodgorliklarini kiritish istagi), ham sinxron planda (lug'atga iloji boricha ushbu davr leksikasining hamma qatlamlarini: dialektizmlarni, jargonizmlarni, professionalizmlarni va h.k. kiritish istagi) maksimal darajada qamrab olishga intildilar.

Ikkinchi yo'nalishning vakillari ushbu lug'atga kiritilishi kerak bo'lgan leksik materialni ham diaxron jihatdan (ya'ni lug'atning so'zligini vaqt bo'yicha cheklash), ham sinxron jihatdan (ya'ni lug'atga kiritilishi kerak bo'lgan til leksikasining guruhini ajratish va nazariy jihatdan asoslash) qat'iy chegaralash zarur, deb hisoblar edilar.

Birinchi yo'nalishning vakillari lug'at ushbu tilning hamma so'zlarini istisnosiz, uning yozma matnlarida qayd qilingan barcha so'zlarni o'z ichiga olishi kerak deb hisoblardilar. Ularning fikriga ko'ra, lug'atda "...ushbu tilda garchi bir marta bo'lsa ham uchragan (ya'ni "hapax"lar deb ataluvchilarning hammasi) har bir so'z istisnosiz kiritilishi kerak va har bir so'zga ushbu tilda mavjud bo'lgan matnlardan sitatalarni o'ylamasdan keltirilishlari kerak." [6] Bunday

turdagi lug'atlarni "tezauslar" (thesauruses) deb atash qabul qilingan.

To'liq, mukammal lug'atlarni – tezauslarni tuzish vazifasi birinchi bo'lib filologlar tomonidan o'lik tillar (lotin va yunon) uchun shu asosda ilgari surilgan ediki, u yerda til lug'at tarkibining hech qanday o'sishi yo'q. Demak, lug'at so'zligining chegaralarini qidirish yoki o'rnatish kerak emas, ular allaqachon tilning qotib qolgan shakllarida berilgan, ularning hammasi o'zining yodgorliklari bilan qayd qilinganlar [3].

Lug'at-tezausning g'oyasi asta-sekin jonli tillarga ham o'tdi.

Turli mamlakatlarning leksikograflari ushbu millatning barchi til boyligini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan lug'atlarni yaratishga urindilar.

Misol uchun, aka-uka Grimmlarning nemis tili lug'ati mana shular jumlasidandir [8. 149-155]. Uning so'zligi nemis milliy tilining chegaralaridan ancha chetga chiqadi. Uning lug'ati taxminan qadimgi yuqori nemis tiliga oid yodgorliklarda qayd qilingan barcha so'zlarni o'z ichiga oladi.

Ehtimol, hozirgi kunda Ispaniyaning leksikograflari ustida ish olib borayotgan ispan tilining lug'ati xuddi shunday bo'ladi.

Mana shu tipga ingliz tilining Oxford dictionarysi yaqinlashmoqda [12].

Mana shu g'oyalarning belgisi ostida akademik A.A. SHaxmatovning tahriri ostida Rus tili Lug'ati tuzildi. A.A. SHaxmatov prinsip jihatidan lug'atga qanaqa bo'lmasin so'zlarning tanlanishini inkor qildi va "... rus tilining hamma leksik boyligini uning barcha eng rang-barang ko'rinishlarida: Lomonosov davridagi adabiy tilning so'zlaridan tortib to har xil turdagi zamonaviy dialektizmlar, professionalizmlar va jargonizmlargacha ham qo'shib qamrab olishni rejalashtirdi" [1].

SHunday qilib, A.A. SHaxmatov thesaurus linguae Russicae (rus tilining xazinasini) yaratishga harakat qildi [2]. A.A. SHaxmatovning bu urinishlari me'yoriy lug'at yaratilishini talab qilgan zamondoshlarning keskin qarshiligiga uchradi.

Fikrimizcha, tilning hamma leksik materialini qamrab olish prinsipining izchillik bilan olib borilishi faqat o'lik tillarga nisbatan, yoki jonli tilning oldingi rivojlanishining davrlariga nisbatan amalga oshirilishi mumkin (masalan, XVII, XVIII asrlarning lug'atlari).

Jonli tillarga nisbatan bu prinsip amaliy jihatdan mumkin emas, chunki "lug'atda hozirgi kunda eng muhim mualliflarning butun kutubxonasini qayta bosib chiqarish mumkin emas axir... Bunday ishning be'maniligi, agar biz faqat yozma emas, balki og'zaki, garchi sohaning tilini nazarda tutmasak ham, shu zahotiyoy ochiq-oydin ayon bo'ladi" [6].

O'z-o'zidan ma'lumki, "tezaus" tipidagi lug'atlar (yoki ularni tuzishga urinishlar bo'lsa ham, masalan, akad. A.A. SHaxmatovning Lug'ati) turli xil filologik tekshirishlar uchun qimmatlidir. Biroq ular milliy til lug'at tarkibining izchil manzarasini bermaydilar. Lug'atga har qanday (aniqrog'i: har bir) tilda qayd qilingan so'zni kiritish prinsipi til tizimining buzilishiga olib keladi, uning chegaralarini xaspo'shlaydi, tilning tasodifiy elementlariga lug'atga yo'l ochadi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, jonli tilning lug'atida – tezausida hamma narsa bo'ladi, ammo asosiysi – hozirgi til tizimining ko'rsatuvi (namoyishi) bo'lmaydi.

Ikkinchi yo'nalishning vakillari, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, hech bir lug'at, u hajmi bo'yicha qanchalik katta ko'lamda bo'lmasin, amaliy jihatdan jonli tilning hamma milliy boyligini, uning butun leksik materialini, uning leksikasining barcha qatlamlarini kiritmaydi, asosiysi kiritmasligi ham kerak, deb hisoblaydilar. Aksincha, deb o'ylaydilar ular, u yoki

boshqa izohli lug'atni yaratishda ushbu lug'atga kiritiladigan leksikaning sinchiklab qilingan tanlovi zarur [10].

Ha, haqiqatan ham, agar qandaydir izohli lug'at jonli tilning hamma milliy boyligini, uning leksikasining hamma qatlamlarini qamrab olishga urinsa, uning mazmuni, R. Chepmanning iborasi bilan aytganda, "fantasmagorik (alohlaganda ko'zga ko'rinadigan narsalar) qorishmaga" [7], til materialining na tizimi, na chegaralari bor shaklsiz (ma'nosiz) massasiga aylangan bo'lar edi.

SHuning uchun u yoki boshqa lug'at o'zining so'zligiga muqarrar ravishda so'zlarning qandaydir boshqa guruhlarini chetda qoldirib, faqat ba'zi bir guruhlarini kiritadi.

Lug'atga kiritilgan so'zlar hammaga ma'qul bo'lgan, qo'llanilishga tavsiya qilingan statusni oladilar. Kiritilmaganlari – umumiy qo'llanilishga tegishli bo'lmagan, noyob so'zlar, maxsus ehtiyojlar bo'yicha ishlatiladigan so'zlar holatida qoladilar. SHu boisdan, bunday lug'atlar rus leksikografiyasida me'yoriy lug'atlar nomini oldilar. Bizga ma'lumki Ingliz leksikografiyasida bunday termin yo'q.

Ta'kidlash mumkinki, umuman olganda, hozirgi leksikografiyada (aniqrog'i, hozirgi (zamonaviy) tillarning lug'atlarini tuzish bilan mashg'ul bo'lgan leksikografiyada) birinchi prinsip, ya'ni tilning barcha so'zlarini ro'yxatga olish prinsipi borgan sari keyingi planga chekinyapti. Ikkinchi prinsip, ya'ni u yoki boshqa tipdagi lug'atga nazariy jihatdan asoslangan so'zlarni tanlash prinsipi borgan sari ahamiyat kasb etyapti.

Ingliz akademik leksikografiyasi ham, Oxford dictionary o'zining diaxron planida lug'atning – tezausning tipiga yaqinlashishiga qaramasdan, har holda so'zlarning ma'lum tanlovi prinsiplarida turibdi. O'sha Oxford dictionaryning o'zini oladigan bo'lsak, unga ko'p vulgarizmlar, dialektizmlar, professionalizmlar va h.k. kiritilmagan.

Amerika leksikografiyasi o'zining lug'atlari so'zliklarini ham davr bilan ham lug'atga kiritilayotgan leksika qatlamlarini cheklab, bu prinsipni yanada ko'proq izchillik bilan olib boradi.

SHunday qilib, jonli tillarning hozirgi izohli lug'atlarining ko'pchiligi deyarli hech qachon bu so'zning to'liq ma'nosida tezauslar emas, balki shuning uchun ular har doim lug'atga kiritilayotgan leksikaning ma'lum tanloviga asoslangandirlar.

Albatta, lug'atga so'zlarning tanlovi muammosi "faqat konkret tarzda, lug'atning tipiga, uning hajmiga, lug'atning umumiy ko'rsatmasiga, qaysi maqsadlar uchun tuzilayotganligiga va kimga mo'ljallanganligiga qarab hal qilinishi kerak.

Lug'atlarda hamma leksikani qamrab olishning real imkoniyati bilan bog'liq u yoki boshqa chetga chiqishlar bo'lishi mumkin. Biroq shak-shubhasizki, adabiy tilning lug'ati umuman olganda adabiy tilning hamma leksik materialini qamrab olishi shart.

Agar hozirgi adabiy tilning izohli lug'atining so'zligi ushbu adabiy tilning hamma leksik tarkibini kiritishi kerak bo'lsa, u holda, demak, "hozirgi adabiy til" tushunchasining o'zi aniq ta'riflanishi kerak bo'ladi.

Biroq, hozirgi kunda fanda "hozirgi adabiy til" terminini qo'llashda kerakli bo'lgan oydinlik va aniqlik mavjud emas. U hali ham ba'zida ham umumadabiy til, [6] ham umumxalq tili, ham umummilliy til [2] deb ataladi.

Xulosa. Adabiy til tushunchasining o'zi tilshunoslar o'rtasida turlicha izohlanadi. U ba'zan yozuvchilar tomonidan sayqal berilgan umumxalq tili sifatida, ba'zan umumxalq til me'yorlarining tizimi sifatida, ba'zan, umumahamiatlilikning belgilariga ega bo'lmagan (shevalar, jargonlar, argo va h.k.) til sohalaridan farqli ravishda ushbu xalq uchun umumahamiatyatga

ega bo'lgan til sifatida ta'riflanadi. Ba'zan adabiy til yozuv tili, kitobiy til sifatida tushuniladi.

ADABIYOTLAR

1. Бабкин А.М. По вопросам русской лексикологии и лексикографии. -ЛС: 1960. вып. IV, -С. 3-5.
2. Виноградов В.В. Русская наука о русском литературном языке. УЗ МГУ, 1946. вып. 106, т. III, кн.1, -С. 22-117.
3. Ларин Б.А. Основные принципы словаря автобиографической трилогии М. Горького. Сб. «Словоупотребление и стиль М. Горького.» Изд. ЛГУ, 1962. -С. 3-6.
4. Оруджев А.Г. Толковый словарь азербайджанского языка. Координационное совещание по вопросу составления толковых словарей тюркских языков. Тезисы докладов. -Баку: 1956. -С. 541.
5. Словарь русского языка под ред. акад. А.А. Шахматова (буквы Е-Ж-З). СПб., 1897-1907.
6. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. Избранные работы по русскому языку. -М., Аспект Пресс, 2007. -С. 252.
7. Chapman R.W. Lexicography. James Bryce memorial lecture. -L., 1948. -P. 34.
8. Grimm J. and Grimm W. Deutsches Wörterbuch. -Leipzig: 1854-1954
9. Mathews M.M. A. Survey of, English Dictionaries. -New York/ Russell & Russell: 1966. -P. 136.
10. Murray J.A.H. A report on the problems and principles of lexicography. Transactions of the Philological Society. 1877-79. -Pp. 573-586.;
11. Steger S.A. American Dictionaries. Nabu Press, 2011. -P. 164.
12. The Oxford English Dictionary. Vols I-XII with Supplement and Bibliography. -Oxford, 1933.
13. Williams K.V. The problems of bilingual lexicography. Hispanic Review, 1959. April, XXVII, N 2, -P. 246.